Nabiyeva Feruza Odilovna , tayanch doktorant, Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna	
Пути организации инновационных процессов в Узбекистане	988
Насиров Дилшод Фарходович	
Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе.....	992
Кодиров Бобур Абдулбори угли , магистр	
Tijorat banklari depozit bazasini optimallashtirish masalalari	1000
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Tijorat banklari operatsion xarajatlarini optimallashtirishning ayrim jihatlarini	1005
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Bank kapitali barqarorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish holati.....	1010
Vasiyev Alisher Samiyevich	
O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotining institutsional tahlili	1014
Hakimjon Hakimov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1019
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlarining samaradorligini oshirish	1024
Ilyasova Barno Axmadovna , mustaqil tadqiqotchi	
Xitoy sug'urta bozorida onlayn sug'urta xizmatlar tahlili.....	1028
Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)	
Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari	1033
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligini matematik simulyatsion modelashtirish.....	1041
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
O'zbekistonda akademik mustaqillikni qo'llab-quvvatlash: 2022-yilgi AFI tadqiqotidan olingan tushunchalar va ilmiy istiqbollar	1046
Yuldashev Feruz Isroil o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni tartibga solish funksiyalari.....	1052
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori	
Tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasi samaradorligini oshirish yo'llari	1058
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning marketing strategiyasi va uning amal qilish mexanizmi	1064
Muxtorova Umida Karimovna , katta o'qituvchi	
Аспекты здоровья и питания: влияние продукции животноводства на устойчивые и здоровые рационы	1070
Нуриллаев Рахмат Ярашевич , к.с.х.н., доцент	
Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции	1075
Бабаева Гузаль Яшиновна , доцент кафедры	
Oilaviy biznes bo'yicha jahon amaliyoti tahlili	1081
Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li	
Milliy iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining tutgan o'rni.....	1086
Jo'rayev Dilshod Maxmudjonovich	
To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi.....	1091
Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tashqi iqtisodiy savdoning ahamiyati.....	1095
Ibodullayev Abror Axrorovich , dotsent, Gulov Ma'ruf G'ayrat o'g'li , Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li , talabalar	
The Impact of Corporate Monopolies on Market Competition and Economic Health	1100
Nimatullayev Khondamir Tursunboy ugli , Avazov Ilkhom Ravshanovich	



Проблемы и перспективы зеленой экономики в Республике Узбекистан.....	1104
Тураева Адиба Икрамовна , старший преподаватель кафедры	
Quantifying the Return on Investment for Businesses in Adopting Green Construction Practices	1109
Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova , DSc	
Ishlab chiqarish tafovutining markaziy bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri	1117
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich , PhD	
Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish.....	1122
Kalandarova Nargiza Narimanovna , PhD	
Aksiyadorlik jamiyatlarining fond birjalarida listingdan o'tish tartibi va mamlakatimiz amaliyoti.....	1128
Narimonov Sayfullaxon Sunnatillo o'g'li , tayanch doktorant	
Hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlar.....	1135
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Kichik biznes uchun muqobil moliyalashtirish manbalari va vositalari: xorijiy tajriba.....	1142
Xolikov Sarvar Xayitbayevich	
Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda va sug'urta portfeli muvozanatida andarrayting xizmati	1147
Sayfullo Mirzoyev , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonning elektron tijorat strategiyasi: xorijiy bozorlarda raqobat qilishning asosiy yo'llari.....	1153
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich , PhD	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda marketingning roli.....	1158
Eshmirzayev Faruddin Ilxomjonovich , tayanch doktorant, Salimova Zaxro Sobirjon qizi , magistr	
Barqaror rivojlanish konsepsiyasini tadqiq qilish yondashuvlari tahlili.....	1164
Xasanova Nasiba Nazar qizi , tadqiqotchi	
Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishda marketing tadqiqotlari metodologiyasi	1170
Meyliyeva Dilnoza Boboniyoz qizi	
Концепция маркетинговой стратегии развития региона и ее теоретические основы.....	1176
Холмуротова Диёрахон Ибрагимовна	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga xalqaro kapital bozori dan moliyaviy resurslar jalb qilish amaliyotining tahlili	1179
Muydinov Shohruh Najmiddin o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda o'zini o'zi band qilishda xorijiy tajribalar va ulardan mamlakatimizda foydalanish masalalari...	1186
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li , tayanch doktorant	
Aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish.....	1191
Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich	
Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda raqamli texnologiya vositalarining o'rnini.....	1194
Raxmonov Lochin To'xtamishovich , mustaqil izlanuvchi	



YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYA VOSITALARINING O'RNI

Raxmonov Lochin To'xtamishovich

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda raqamli texnologiya vositalarining o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, "Big Data", "Cloud Somputing", "Artificial intelligence", "Blockchain technology", internet.

Abstract: The article reveals the role of digital technology tools in the fight against the shadow economy.

Key words: digital economy, "Big Data", "Cloud Somputing", "Artificial intelligence", "Blockchain technology", internet.

Аннотация: В статье раскрывается роль инструментов цифровых технологий в борьбе с теневой экономикой.

Ключевые слова: цифровая экономика, "Big Data", "Cloud Computing", "Artificial intelligence", "Blockchain technology", интернет.

KIRISH

Jahonda shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, iqtisodiy siyosati va davlat boshqaruvi tuzilishini sifat hamda texnologik jihatdan tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Chunonchi raqamli texnologiyalarning kirib kelishi va ularning iqtisodiy-ijtimoiy hayotda keng tatbiq etish sur'atlarining turlichaligi oqibatida mamlakatlar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlarining yanada kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Dunyoda "raqamli iqtisodiyot"ning o'sish sur'atlari deyarli 15,5 foizni tashkil etadi. Taraqqiy etgan davlatlarda "raqamli iqtisodiyot"ning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga yetgan. Ular hozirning o'zida "raqamli iqtisodiyot"ning joriy qilinishidan juda katta foyda ko'rmoqda. Jumladan, AQSH yiliga 400 milliard AQSH dollaridan ko'proq "raqamli xizmat"larni eksport qilmoqda. 2025-yilgacha AQSH sanoat sohasini "raqamlashtirish"dan qo'shimcha 20 trln. AQSH dollar daromad olishi kutilmoqda".

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot, uning shakllari va ta'sir etuvchi omillarining ilmiy-metodologik jihatlari ko'plab xorijlik olimlar, jumladan: D.Tapscott, N.Lane, T.Mesenbourg, M.Kastells, B.Panshin, N.Negroponte, A.Sokolov, A.Kunsmann, R.Buxton, R.Xix, M.Poljixina, I.Strelkova, M.Kalujskiy, S.Plugotarenko, M.Kastells, R.A.Solou va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan ^[1].

Avvalambor, shuni qayd etib o'tish lozimki "yashirin iqtisodiyot"ning xalqaro e'tirof etilgan yagona tarifi hamda uning ko'lamini aniqlashning aniq usullari mavjud emas ^[1]. "Yashirin iqtisodiyot" atamasi adabiyotlarda "norasmiy iqtisodiyot", "xufiyona iqtisodiyot", "soyadagi iqtisodiyot" va boshqa turli atamalar bilan ham yuritiladi. Yashirin iqtisodiy faoliyat asosan latent, ya'ni yashirin xususiyatga ega bo'lib, uni amalga oshirish usullari doimiy o'zgaruvchanlik, murakkablashib borish, turli sxemalar orqali sodir etilishi kabi xususiyatlarga ega. Bu esa ularni aniqlash va fosh etish murakkab ekanligini anglatadi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra korrupsiya va xufiyona iqtisodiyot iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy kuchlar bo'lib, korrupsiya va xufiyona iqtisodiyot o'rtasida chambarchas aloqa mavjud, ular ma'muriy to'siqlardan iborat umumiy ildizlarga ega ^[2].

Mamlakatda "xufiyona iqtisodiyot" darajasining yuqoriligi poraxo'rlik darajasining ham yuqori darajada bo'lishiga zamin yaratadi ^[3]. Past daromadli davlatlarda "xufiyona iqtisodiyot" ko'lamini oshishi bilan korrupsiya darajasi ham oshishi aniqlangan ^[4]. Shuningdek, "yashirin iqtisodiyot" va inflyatsiya bir-biri bilan musbat bog'liq, soliq yuki bilan esa manfiy bog'liqlik mavjud ^[5]. "Yashirin iqtisodiyot" bilan norasmiy bandlik tahlili rivojlanayotgan davlatlarda norasmiy band fuqarolar soni rasmiy mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar sonidan katta ekanligini ko'rsatadi ^[6]. Norasmiy iqtisodiy faoliyat ko'lamini kengayishi bilan o'z domiga halol faoliyat ko'rsa-



tayotgan iqtisodiy subektlarni ham tortishi ^[7] shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid sifatida baholanadi ^[8]. Ayrim tadqiqotchilar yashirin iqtisodiy faoliyatning ba'zi jihatlari (bozor iqtisodiyotiga o'tishga ko'maklashishi, yashirin iqtisodiyotda olingan daromadlarning kamida uchdan ikki qismi rasmiy iqtisodiyotda sarflanishi va boshq.) bilvosita boshqa sektorlarga ijobiy ta'sir qilishini e'tirof etishadi^[9]. Shu kabi, "xufiyona iqtisodiyot" o'tish davlatlari uchun tabiiy holat bo'lib, ularda rasmiy sektor faoliyatini tashkil etishga ko'maklashishi, biroq uzoq muddat davomida yashirin iqtisodiyotning mavjud bo'lishi mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta'sir qilishi ta'kidlanib, o'tish mamlakatlari uchun yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar taklif etilgan ^[10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, solishtirma tahlil, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullar qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, raqamli iqtisodiyot texnik yutuqlar, global tarmoq va axborot tizimlari vositasida iqtisodiy munosabatlar segmentini ifodalaydi. Biroq, raqamlashtirish, har qanday jarayon hamda texnologiya va asboblari kabi tarkibiy qismlardan foydalanmasdan amalga oshmaydi. Ular davlat, xalq, bank va korxonalar o'rtasida vositachilar bo'lib, kontragentlar zanjirlarini qisqartiradi va qaror qabul qilish tezligini oshiradi.

Agar iqtisodiyot "Oltin qoida" bo'yicha ega bo'lishi mumkin bo'lgan kapital zahirasidan ortiqcha kapital zahirasi bilan rivojlanayotgan bo'lsa, unda bu holatda jamg'arma me'yori pasaytirishga yo'naltirilgan siyosatni amalga oshirish zarur. Jamg'arma me'yorining kamayishi iste'molning oshishi va unga muvofiq ravishda investitsiyalarning pasayishiga olib keladi, demak kapital zaxirasining barqaror darajasining pasayishiga ham olib keladi.

Agar iqtisodiyot barqarorlik holatida "Oltin qoida" dagidan kam kapital bilan qurollanganlik bilan rivojlanayotgan bo'lsa, unda jamg'arma me'yori oshirish zarur. Bu investitsiyalarni oshirib iste'molni pasaytiradi, lekin kapitalning jamg'arilib borishi bo'yicha qandaydir vaqtdan boshlab yana o'sa boshlaydi. Natijada iqtisodiyot yana yangi muvozanat holatiga erishadi ammo oltin qoidaga muvofiq bo'lgan holda, bunda iste'mol dastlabkiga nisbatan yuqoriroq darajaga ega bo'ladi.

Texnik taraqqiyotni rag'batlantirish R.Solou modeli texnik taraqqiyotni farovonlikni barqaror oshiruvchi va o'sishning optimal variantini topishga imkon yaratuvchi yagona asos sifatida ko'rsatadi. Biroq u texnik taraqqiyotni tashqi (Ekzogen) omil sifatida ko'rib chiqadi, demakki uni tushuntirmaydi. Ayrim olimlarning fikricha, texnik taraqqiyotning determinantlari bugungi kunda yetarlicha aniq emas. Biroq davlat siyosti turli xil instrumentlardan shu jumladan ilmiy tadqiqot va loyiha – konstruktorlik ishlaridan foydalanib texnik taraqqiyotni rag'batlantirishi mumkin. Masalan, patent qonunchiligini mukammallashtirib, ayrim rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Yaponiya, Germaniya) uzoq muddat davomida yangi mahsulotni ishlab chiqarish huquqiga monopoliyani berishdi. Soliq to'g'risidagi qonunlar ko'pgina mamlakatlarda ilmiy tadqiqot tashkilotlariga bir qancha imtiyozlar beradi. Maxsus tashkil etilgan milliy ilmiy fondlar fundamental ilmiy tadqiqotlarga subsidiyalari beradi. Hozirgi kunda mablag'larni inson kapitaliga yo'naltirish ham muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda, texnik taraqqiyotda u asosiy rolni o'ynaydi.

Raqamli iqtisodiyotning quyidagi texnologiyalarini ko'rib chiqamiz:

1. Ulkan ma'lumotlar.

"Ulkan ma'lumotlar" atamasi 2008-yilda paydo bo'lgan bo'lib, global axborot oqimining oshishi bilan rivojlandi. Bugungi kunda dunyoda katta ma'lumotlar konsepsiyasi tahlil qilish uchun obyekt, yoki aniqrog'i, an'anaviy usullar bilan o'rganilishi mumkin bo'lmagan tezkor raqamli ma'lumotlarning katta miqdoridan foydalaniladi. Ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasi, shuningdek, muayyan maqsadlar va vazifalarni hal qilishda ulardan foydalanishni davom ettirish uchun vositalar va usullar tushuniladi. Shu bilan birga, ma'lumot manbalari Internet saytlari, arxiv hujjatlari, kompyuter hisobotlari va boshqalar ham bo'lishi mumkin.

Ushbu texnologiya orqali banklar uyali aloqa uchun to'lov, mobil operator xizmatlari va geolokatsiya ma'lumotlari bo'yicha operator tomonidan berilgan ballar haqida ma'lumot olishlari mumkin. Banklar, o'z navbatida, potensial mijozlarning to'lov qobiliyatini baholashlari mumkin.

2. Internet.

Britaniyalik olim Tim Berners-Li 1989-yilda CERNda ishlayotganda Butunjahon Internet tarmog'ini (World Wide Web (WWW)) ixtiro qildi. Veb dastlab butun dunyo bo'ylab universitetlar va institutlar olimlari o'rtasida avtomatlashtirilgan ma'lumot almashish talabini qondirish uchun ishlab chiqilgan.

"CERN" – bu alohida laboratoriya emas, balki 100 dan ortiq mamlakatlardan 17 000 dan ortiq olimlarni o'z ichiga olgan keng jamoatchilik uchun markaz. Odatda ular bir muncha vaqt "CERN" saytida bo'lishsa-da, olimlar odatda o'z mamlakatlaridagi universitetlarda va milliy laboratoriyalarda ishlashadi. Shuning uchun ishonchli aloqa vositalari juda muhimdir. WWW-ning asosiy g'oyasi rivojlanayotgan kompyuterlar, ma'lumotlar



tarmoqlari va gipermatn texnologiyalarini qudratli va foydalanishda oson bo'lgan global axborot tizimiga birlashtirish edi. Shunday qilib, internetning konsepsiyasi paydo bo'ldi. Internet bir-biri bilan yoki tashqi muhit bilan aloqa qila olmaydigan jismoniy narsalardan (narsalardan) iborat tarmoqni anglatadi. Bu yerda ma'lumotlarning mustaqil ravishda uzatilishi mumkin bo'lgan qurilmalarning avtonomligi muhim ahamiyatga ega. Internetning mafkurasi faoliyatning turli sohalarda jarayonlarni avtomatlashtirish va ularda inson ishtirokini bartaraf etish orqali iqtisodiyotning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Huawei prognoziga ko'ra, Internet quvvatining 55% aqlli shaharlar va ishlab chiqishni takomillashtirishda, qolgan 45% – inson ehtiyojlari – maishiy texnika, uchuvchisiz avtomobillar, tibbiy asbob-uskunalariga ishlatiladi.

“Internet of Things” texnologiyasi boshqa texnologiyalarga nisbatan katta afzalliklarga ega: u iste'mol bozorida, ishlab chiqarish va savdo sohasida keng tarqalgan. Unda internetning tarqalishi uchun tayyor infratuzilma mavjud va kelajakda turli sensorlarni joriy etish arzon bo'ladi.

Kelajakda internetning tarkibiy qismlari savdo ishtirokchilari vazifasini bajarishi mumkin, bu yerda ular birgalikda va bir-biri bilan bog'lanib, atrof-muhit haqida bir-birlariga ilg'or ma'lumot beradi. Misol uchun, aqlli termoregulyatsiya mexanizmi energiya iste'moli ma'lumotlarini aqlli elektr tarmog'iga yuboradi. Ma'lum miqdorda elektr energiyasidan foydalanilgandan so'ng, boshqa mexanizm ushbu hisob-kitob asosida bu energiyani to'laydi. Kopengagenda hukumati 2025 yilda karbonat angidridni nolgacha tushirishni rejalashtirmoqda. Buning uchun Internet tushunchasi asosida yaratilgan ko'cha chiroqlari o'rnatiladi. Ular tashqi sharoitlarga e'tibor qaratib, yorug'likning yorqinligini o'zgartiradi. Olingan ma'lumotni o'rganish mutaxassislariga karbonat angidrid chiqindilarining narxi va darajasi jihatidan eng samarali chiroqlarni aniqlashga yordam beradi ^[4].

3. Blokcheyn.

“Blockchain technology” (Blokcheyn texnologiyasi) birinchi marta 2009-yilda iste'molga kiritilgan. Bu “kriptovalyuta” bilan xavfsiz anonim bitimlar uchun asos bo'lib xizmat qildi. “Kriptovalyuta” virtual, elektron tanga sifatida foydalanish mumkin, bular shifrlangan ma'lumotlar bo'lib hisoblanadi. “Blockchain” deyarli har qanday kriptovalyutani ishlashini kafolatlaydi. Zotan, yuzdan ortiq “kriptovalyuta” yaratilgan bo'lib, ularning soni o'sib bormoqda. “Blockchain technology” faqatgina “kriptovalyuta” bilan bog'liq bo'lmasdan, balki blok-axborotni saqlash tartibi yoki operatsiyalar, maqsadlar, bitimlar, shartnomalarning amaldagi kadastrini ham boshqarish va saqlash tizimi bo'lib hisoblanadi.

“Bitcoin”, boshqa har qanday raqamli valyuta kabi, biror bir joyda yoki faylda saqlanmaydi. U “Blockchain”da yozilgan tranzaksiyalar bilan ifodalanadi va “Bitcoin” bir rangdagi katta tarmoq resurslari orqali “Bitcoin”dan foydalanilgan har bir tranzaksiyani tasdiqlash va uni ma'qullash uchun foydalaniladigan qandaydir butunjahon “kattakitob” yoki katta jadval kabi namoyon bo'ladi.

Har qanday “Blockchain”, “Bitcoin”dan foydalanishi yoki foydalanmasligidan qat'i nazar, taqsimlangan hisoblanadi: u butun dunyo bo'ylab ushbu tizimga kirgan ko'ngillilar kompyuterlarida ishlaydi, shuning uchun ham uni buzib kirish mumkin bo'lgan ma'lumotlarning markaziy to'plami yo'q. “Blockchain” ommaviydir: uni istalgan kishi istalgan paytda ko'rib chiqishi mumkin, chunki tranzaksiyalar auditi va hisobi bilan shug'ullanadigan birona tashkilotga a'zo emas. “Blockchain” shifrlangan: unda virtual xavfsizlikni ta'minlash uchun ommaviy va xususiy kalitlar (bank yacheykasi uchun foydalana oladigan ikkita kalit tizimi kabi) qo'llanadigan kuchli shifrlash tizimidan foydalaniladi. Davlat muassasasi yoki moliyaviy korporatsiyaning vijdotsiz xodimi yoki supermarketlar ulkan tarmog'ining kuchsiz brendmauerlari haqida qayg'urishiga esa hojat yo'q ^[6].

Iqtisodiy tranzaksiyalar yangi raqamli registrini insoniyat uchun muhim va qimmatli bo'lan istalgan axborotni saqlash uchun ishlatishi mumkin, shu jumladan, tug'ilganlik haqida, nikoh haqida va o'lim haqidagi guvohnomalar, oliy ma'lumot haqidagi diplomlar, moliyaviy hisobotlar, tibbiyot kartalari, sug'urta to'lovlari uchun murojaatlar, saylovlardagi ovozlar soni, mahsulotlarning kelib chiqishi – kod ko'rinishida taqdim etilishi mumkin bo'lgan istalgan ma'lumotni saqlab qo'yishi mumkin.

Yangi platforma dunyodagi hamma narsa haqida raqamli ma'lumotlarni onlayn rejimida birlashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari, yaqin kelajakda moddiy dunyodagi milliardlab aqlli qurilmalar o'zgarishlar qabul qilishi va uzatishi, ularga javob qaytarishi, o'z ehtiyojlarini ta'minlashi uchun elektr energiyasini xarid qilishi va muhim axborotlarni tarqatishi, atrof-muhitni muhofaza qilishdan tortib, bizning sog'lig'imiz haqida qayg'urishigacha bo'lgan xilma-xil vazifalarni o'z zimmasiga olishi mumkin ^[5].

“Blockchain”ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaffoflik;
- xavfsizlik;
- tez va oson ma'lumot almashish.

Tizimga har qanday shaxsiy ma'lumotlar taqdim etiladi. Tizim ishlanmalari faqat alohida faoliyat haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Texnologiya muntazam foydalanishga kirganda, banklar, notariuslar, davlat tashkilotlari ishtirok etadi. Blok zarur summalarni tayyorlashga qodir bo'ladi: bitimlarni qurish, shaxsni tekshirish, bitimlarni tasdiqlash. Blokning asosiy vazifalaridan biri monoton ish bilan bog'liq bo'lgan xodimlarga yukni kamaytirish, buning natijasida mehnat resurslarini optimallashtirish mumkin.




4. Intellektual axborot texnologiyalari.

Axborot texnologiyalari aqlli quyosh algoritmlari qatorida ma'lumotlarni qayta ishlashga qaratilgan texnologiyalarni joriy etadi. Intellektual axborot texnologiyalari ma'lumotlari bo'yicha amalga oshirilgan harakatlar va operatsiyalarning aniq qoidalari bilan jarayon bo'yicha tavsiyalar berilishi mumkin. Shu bilan birga, har qanday amaliy sohada olimlar va insonlarning yutuqlaridan foydalaniladi, foydalanuvchi uchun muhim ma'lumotlarni olishning asosiy vazifasi hisobga olinadi. Bundan tashqari, Intellektual axborot texnologiyalari nafaqat mutaxassislarning bilimi va amaliyotini saqlab qoladi, balki fikrlarni ham ishlab chiqadi. Bunda texnologiyalar turi muammolarni tahlil qilishni jadallashtirishga yordam beradi: texnik, iqtisodiy, ijtimoiy yoki jismoniy va universal texnik siyosatda xizmat qilishi mumkin [7].

Yangi texnologiyalar va shaxslar o'rtasida o'zaro hamkorlikning tranzaksion xarajatlarini kamaytirish va xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat idoralari bilan yanada yaqinroq aloqa o'rnatish imkonini beradi. Natijada, tarmoq xizmatlariga asoslangan iqtisodiyot raqamli yoki elektron shakllanadi. "Raqamlashtirish" konsepsiyasi zamonaviy internet-texnologiyalarni samarali boshqarish va o'zaro munosabatlarning oshishiga olib keladi.

Bugungi kunda turli xil raqamli platformalar o'zaro bog'langan, ma'lumot almashish "ekosistemalar"ga birlashmoqda. Kun tartibida ko'plab turli bozor va korxonalarni qamrab oladigan yangi avlod raqamli platformalarini yaratish va ishga tushirish masalalari muhokama qilindi.

Agar platforma konsepsiyasi avvalo savdo va logistika segmentida ishlab chiqilgan va amalga oshirilsa, raqamli rivojlanish haydovchisi "Industry 4.0" konsepsiyasi va "Industry 4.0" asosiy texnologiyasi sifatida aqlli zavod (Smart Factory) hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm: "Industry 4.0" loyihasining mazmuni

"Smart Factory"ning barcha yo'nalishlari to'liq avtomatlashgan, shuningdek, barcha jarayonlar kompyuterga birlashtirilgan, yuqori darajada moslashuvchanlik, dizayndagi tezkor o'zgarishlarga ega bo'ladi. Seriyali mahsulot ishlab chiqarishda AKTning ulushi va ahamiyati alohida buyurtmalar uchun murakkab texnik mahsulotlar uchun qo'llanilishi bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish liniyalari tezda yangilanib, qayta qurish imkoniyatiga ega bo'lgan sanoat tarmoqlari orqali avtonom tizimlar tomonidan boshqariladi.

Mahsulot umrining barcha bosqichlarida "Smart Factory"ning funksional bo'linmalari bir-biriga bog'langan butunlik sifatida ishlaydi, ular onlayn qayta aloqa oqimlari bilan tartibga solinadi.

Mahsulotning butun hayot aylanishi (PLM boshqaruvi), shu jumladan logistika, xizmat ko'rsatish markazlari bilan integratsiyalashuv va qabul qilishni olib borish boshqaruvning obyekti bo'ladi.

Raqamli iqtisodiyotning keng joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligining ortishida, yangi tarmoq va sohalarning rivojlanishida, xizmatlar sifati va ularni ko'rsatishning optimallashtirishida, iqtisodiyotning inson manfaatlariga xizmat qilishi va bu orqali hayot sifatining yaxshilanishida muhim hisoblanadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilar asosida quyidagi xulosaga kelimiz, raqamli iqtisodiyot inson omilining yashash sharoitini hamda imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida iqtisodiyotda qo'llanilsa ishchi kuchi o'rnini raqamli tizim egalayotgani hamda undagi ma'lumotlarning xavf ostida ekanligi bugungi iqtisodiyotning asosiy muammosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Schneider, F. and Buehn, A., 2018. Shadow economy: Estimation methods, problems, results and open questions. *Open Economics*, 1(1), pp.1-29.
2. Qobilov Sh. R., Abdullajonov N. B. Korruptsiya va xavfsizlik. -T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. - 43 b.
3. Tagayev B.A., "Xufiyona iqtisodiyot" iqtisodiy xavfsizlikka tahdid sifatida, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2015-yil.
4. Dreher, A. and Schneider, F., 2010. Corruption and the shadow economy: an empirical analysis. *Public Choice*, 144(1-2), pp.215-238.
5. Mazhar, U. and Méon, P.G., 2017. Taxing the unobservable: The impact of the shadow economy on inflation and taxation. *World Development*, 90, pp.89-103.
6. Schneider, F., 2011. The shadow economy and shadow economy labor force: what do we (not) know?.
7. <http://biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/49558~xufiyona-iqtisodiyotning-davlat-vajamiyat-taraqqiyotiga-tasiri?tmpl=component&print=1&page=>
8. Abulqosimov M.H. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlar va yo'llari, Iqtisod va moliya / *Ekonomika i finansi* 2017, 5. 46-53-betlar.
9. Matthew H. Fleming, John Roman and Graham Farrell, *Journal of International Affairs*, Vol. 53, No. 2, Shadow Economies: Promoting Prosperity or Undermining Stability? (Spring 2000), pp. 387-409. <http://www.jstor.org/stable/24357758>
10. Eilat, Y. and Zinnes, C., 2002. The shadow economy in transition countries: Friend or foe? A policy perspective. *World Development*, 30(7), pp.1233-1254.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tele.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.